

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

“IQTISODIYOT” FAKULTETI

“BUXGALTERIYA HISOB VA AUDIT” KAFEDRASI

“Himoyaga Tavsiya etiladi”

“BH va A” kafedrası mudiri

_____ dots.O.N.Xushmuradov

“ ” _____ 2010-yil

“Tasdiqlayman”

“Iqtisodiyot” fakulteti dekani

_____ i.f.d. A.F.Xurramov

“ ” _____ 2010-yil

5340900-“Moliya” yo’nalishi kunduzgi bo’limi, IV kurs,
M-42 guruh talabasi Karimova Aziza Ismoilovnaning
“Mahalliy byudjetlarning daromadlari tizimi va uni shakllantirish jarayoni”
(Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi misolida)
mavzusidagi

BITIRUV MALAKAVIY
ISHI

Bajardi:

“Buxgalteriya” yo’nalishi
bitiruvchi IV kurs talabasi
Karimova Aziza Ismoilovna

Ilmiy rahbar:

ATB“Agro bank”
Beshkent bo’limi
hisobchisi
Erkayeva N.

Bitiruv malakaviy ishi kafedrada dastlabki himoyadan o’tdi _____sonli
bayonnomasi ” _____ ” _____ 2010-yil

Qarshi-2010-yil

“Tasdiqlayman”
“BH va A” kafedrası mudiri
доц.О.Хushmurodov
“ _____ ” _____ 2009-yil

**Mavzu: Mahalliy byudjetlarning daromadlari tizimi va uni shakllantirish
jarayoni**

(Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi misolida)

Kirish

I-bob. Mahalliy byudjetlarning nazariy va uslubiy asoslari.

- 1.1. Mahalliy byudjetlarning mohiyati va vazifalari.
- 1.2. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida mahalliy byudjet daromadlarini shakllantirish choralari.
- 1.3. Foydadan foydalanishni hisobga olish va auditini tashkil etishning mohiyati

II-bob. Mahalliy byudjetlar daromadlarining tashkiliy-huquqiy asoslari.

- 2.1. Mahalliy byudjetlar daromadlarini huquqiy tartibga solish va boshqarish.
- 2.2. Byudjet daromadlarini to'g'ri shakllantirishda moliya va soliq organlarining vazifalari.
- 2.3. Viloyat Moliya boshqarmasi byudjetining daromad manbalari bo'yicha tahlili.

III-bob. mamlakatimizda mahalliy byudjet daromadlari va uning ko'rsatkichlarini takomillashtirish yo'llari.

Xulosa va takliflar.

Foydalanilgan adabiyotlar.

Ilovalar.

Ilmiy rahbar:

**ATB“Agro bank” Beshkent bo'limi
Hisobchisi Erkayeva N.**

Bitiruvchi:

A.Karimova

Kirish

Mavzuning dolzarbligi: O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy islohotlarning bosh vazifasibo'lin, makroiqtisodiy barqarorlik, ishlab chiqarishning izchil va mutanosib o'sishi sur'atlarini taminlash, jalb etilayotgan investetsiyalarni ko'paytirish hisobidan tarkibiy o'zgarishlarni qat'iy davom ettirish, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash hisoblanadi. Oldimizga qo'yilgan bosh vazifani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarining asosiylari _ byudjet siyosatini yanada erkinlashtirish, aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlashdan va rivojlantirishni rag'batlantirishdan iborat.

2008-yil yuzaga chiqqan moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralariga diqqat – eti'borini qaratgan O'zbekiston Respublikasi Prizedenti I. Karimov "Davlat byudjeti ortig'i bilan bajarildi, ko'zda tutilgan defitsit o'rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1.5 %ga profitsitga erishildi"¹.

Mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik o'zgarishlar, mahaliy boshqaruv organlarining vakolatlarining kengaytirilishi natijasida ularga ma'muriy hududning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlash vazifasi yuklatildi. Mahalliy vakillik organlari amaldagi qonunchilikka asosan o'zlariga yuklatilgan funksiyalarni to'la hamda belgilangan muddatlarda bajarishlari uchun ma'lum moliyaviy baza bilan ta'minlanadi.

Muammoni o'rganilganlik darajasi: O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar va mutaxassislardan A.Abdiqodirov, K.X.Abdurahmonov, O.K.Abdurahmonov, M.I.Alimardonov, A.B.Vahobov, E.F.Gadoyev, X.N.Jamolov, A.S.Jo'rayev, O.O.Olimjonov, K.A.Yaxyoyev va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlariga davlat byudjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, uning ahamiyati va vazifalari yuzasidan ilmiy fikr-mulohazalari aks ettirilgan.

Bitiruv malakaviy ishing maqsadi: BMIning asosiy maqsadi hududiy moliyaning mohiyatini, tarkibini va funksiyalarini ochib berish va ularni shakllantirishning amaliy ma'lumotlar asosida tahlil etish asosida uni takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish hisoblanadi.

BMIning vazifalari. BMI olidiga qo'ygan maqsadga erishish quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Xalqaro amaliyotda byudjet tuzilishining mohiyati xususida taniqli iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlarini o'rganish, taqqoslash va ularni umumlashtirish;
- Mahalliy moliyaning mohiyati, vazifalari va tarkibiy tuzilmasining xususiyatlarini tadqiq etish;

¹ I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston" 2009 y. 15 bet.

- Milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy moliyani shakllantirishning hozirgi zamon holati va undagi muammolarni aniqlash;
- Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida mahalliy moliyani shakllantirishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqish;

Bitiruv malakaviy ishining obyekti: Qashqadaryo viloyati Moliya boshqarmasi.

BMIIning predmeti: mahalliy moliyani shakllantirish va byudjetlararo munosabatlarni amalga oshirishda Qashqadaryo viloyatidagi moliyaviy faoliyat.

Bitiruv malakaviy ishning nazariy-uslubiy asoslari: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning milliy iqtisodiyotni erkinlashtirish bo'yicha ilgari surilgan nazariy qarashlar, ilmiy risolalar, byudjet tizimiga oid Prezident farmonlari va qarorlari, shu jumladan, mahalliy moliya mavzusi yuzasidan bevosita va bilvosita shug'ullanayotgan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy – nazariy qarashlari.

Ilmiy yangilik quyidagilardan iborat:

- Xalqaro amaliyotdagi byudjet tizimining shakllari yuzasidan barcha ilmiy qarashlar o'rganib chiqildi;
- Mahalliy moliyaning mohiyati, vazifalari va tarkibiy tuzilishining xususiyatlari yuzasidan turli ilmiy nazariy qarashlar qiyosiy o'rganib chiqildi;
- Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yuzasidan aniq tavsiya va takliflar ishlab chiqildi va ilmiy asoslab berildi.

Bitiruv malakaviy ish natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: Shundan iboratki, undagi fikr mulohazalar, xulosa va takliflardan mamlakatimizning byudjet-soliq, hududlarni rivojlantirishni takomillashtirishga qaratilgan chora0-tadbirlarni ishlab chiqishda, ma'muriy-hududiy tuzilmalarni kompleks rivojlantirish dasturini ishlab chiqish.

I-bob. Mahalliy byudjetlarning nazariy va uslubiy asoslari

1.1. Mahalliy byudjetlarning mohiyati va vazifalari

Mahalliy byudjet mablag'larining egasi sifatida amaldagi me'yoriy hujjatlarga asoslanib, umumiy hajmi byudjet qonunchiligida belgilangan miqdorda pul mablag'larini ajratadi. Mahalliy byudjet xarajatlariga mablag'lar ajratish davlat hokimiyati, davlat boshqaruvi organlari moliya-kredit idoralari tizimi orqali tegishli tegishli mablag'larga ehtiyoj sezilgan paytdan (moliya yili) boshlab ularni sarf – xarajat qilgunga qadar bo'lgan butun davr mobaynida yuz beradi.

Mahalliy byudjet obyektiv iqtisodiy kategoriya bo'lib, ikki tomonlama xususiyatga ega. Birinchidan, u iqtisodiyot tarmoqlarini moliyaviy ta'minlashga qaratilgan xarajatlardan iborat. Ikkinchidan, esa bu xarajatlar korxonalarining daromadlaridan tashkil topadi.

Rivojlangan mamlakatlarga mahalliy byudjet mustaqil ravishda mahalliy soliqlar va yig'imlar hisobiga shakllanadi. Bizning respublikamizda ham mahalliy byudjet daromadlarini mahalliy soliqlar va yig'imlar tashkil etadi. Mahalliy davlatlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarni amalga oshiradi, birinchi navbatda ijtimoiy infрасutrukturani saqlash va rivojlantirishga davlat mablag'larini taqsimlashda ahamiyatga ega.

Mamlakat byudjetining tuzilishi birinchi navbatda davlat tuzilishiga ega bo'lgan mamlakatlarda byudjet tizimi 2 bosqichdan iborat. Mahalliy byudjetlar davlatning davlatning moliya tizimini asosiy tarkibiy qismini tashkil etadi. Mahalliy byudjetlar xarajatlarida asosiy o'rinni ijtimoiy- ma'daniy tadbirlar xarajatlari egallaydi.

Hammamizga ma'lumki, aholini ijtimoiy himoyalash masalasining ustuvorligi O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilish bozor iqtisodiyotiga o'tish dasturining eng ustuvor yo'nalishi sifatida tan olinadi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan bozor munosabatlariga o'tishning bosh tamoyilidan biri aholini demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosat yuritish hisoblanadi. Shu sababli mahalliy byudjetdan aholining kam ta'minlangan qatlamlariga to'lanayotgan ijtimoiy to'lovlar hajmi oshib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasida byudjet ijrosining amaldagi holatidan kelib chiqqan holda, mahalliy byudjetlar hukumatning iqtisodiy-ijtimoiy siyosatini amalga oshirishda mavqeini yanada ko'tarishga sabab bo'layotgan qator omillarni ajratib ko'rsatish mumkin. Masalan, mahalliy moliya organlarining byudjet ijrosidan manfaatdorligini oshirish va shuning asosida byudjet xarajatlarini to'g'ri va oqilona tarzda sarflanishi va byudjet tushumlarining yangi manbalarni qidirib topish ga rag'batlantirishni ta'minlashdir.

Bugungi kunda mahalliy byudjetning huquqiy asoslarini quyidagilar tashkil etadi:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O'zbekiston Respublikasining "Byudjet tizimi to'g'risida"gi Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksi 2004 y O'ZRDSQ 80-bet

4. O'zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonuni
5. O'zbekiston Respublikasining "Buxg'alteriya hisobi to'g'risidagi" Qonuni
6. O'zbekiston Respublikasi Vmning 1999-yil 3-sentabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag'lar bilan ta'minlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori
7. O'zbekiston Respublikasi VMning 2002-yil 5-dekabrdagi 610-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2005-yilgi davlat byudjeti asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'g'risida"gi qarori
8. "Byudjetda ko'zda tutilgan xarajatlarni to'liq va o'z vaqtida moliyalashtirishni ta'minlash va byudjet mablag'larining maqsadli ishlatilishi ustidan nazoratni yanada kuchaytirish maqsadida" 2005-yil 2-yanvardagi buyrug'i
9. O'zbekiston Respublikasi Vmning 2005-yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risidagi 244-son qarori

O'zbekiston Respublikasining 2006-yil 14-dekabrdagi qabul qilingan "Byudjet tizimi to'g'risida"gi qonunning 4-moddasiga byudjet tizimiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Byudjet tizimi turli darajadagi byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar yig'indisini byudjetlarni tashkil etishni va tuzish prinsiplarini, byudjet jarayonida ular o'rtasida, shuningdek, byudjetlar va byudjet mablag'lari oluvchilar o'rtasida vujudga keladigan o'zaro munosabatlarni o'zida ifodalaydi." Jamlangan byudjetning ko'rsatkichlari mamlakat markazlashtirilgan moliyaviy fondidan foydalanish va uni shakllantirishni tahlil qilishda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi jamlangan byudjetining ko'rsatkichlari yordamida mamlakatda tuziladigan va davlat moliyaviy balansda aks ettiriladigan moliyaviy resurslarni markazlashtirish darajasi aniqlanadi. Jumladan, byudjet ko'rsatkichlari hisobsiz moliyaviy rejalashtirishni umumlashtirish mumkinmas, chunki davlat moliyaviy balansini va hududiy moliyaviy balanslarning ko'pgina ko'rsatkichlari jamlangan byudjetdan olinadi. O'zbekiston Respublikasining byudjet tizimi 2 bo'g'indan iborat.

O'zbekiston mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini muvofiqlashtirish hozirgi bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida Respublika va uning hududlarini rivojlantirishda muhimdir. Markazlashtirilgan rejalashtirish tizimidan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida 1-navbatda boshqaruv tizimini tarkibini o'zgartirishni va jarayonlar davomida mahalliy boshqaruv organlarining rolini oshirib borishni taqozo etadi.

Mahalliy boshqaruv organlariga yuklatilgan vazifalarni samarali amalga oshirishni ularning moliyaviy mablag'larga ega bo'lishlari bilan bog'liq. Albatta mahalliy boshqaruv organlari faoliyatining asosiy moliyaviy negizi mahalliy byudjetlar hisoblanadi. Davlat byudjeti tarkibida Respublika byudjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri byudjetlari, davlat maqsadli jamg'armalari jamlanadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti bir butundir, ya'ni byudjet tizimi barcha bo'g'inlarga davlatning yagona davlat byudjetiga kiradigan Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlar byudjetlarining uzviy birligini bildiradi.

Byudjet 1-navbatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tiziming yahlitligini belgilab beradi. Byudjet tizimi butun respublika hududida amal qilayotgan davlat daromadlari hamda umumman Qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti, viloyatlar, Toshkent shahri, shahrlar, tumanlarni ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining bir butun tizimiga asoslanadi. Byudjet yaxlitligi byudjetga doir prognozlashtirish uslubiyati va tashkil etish bir bo'g'inligini kafolatlaydi.

Byudjetning yaxlitligi Respublika o'z tasarrufiga pul resurslarining yagona markazlashtirilgan jamg'armasiga oladi, uni byudjet tizimining faqat biror-bir bo'g'iniga taqdim etishi mumkin emas, O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga birlashtirilgan barcha byudjetlarning majmui sifatida ifodalanadi. Respublika byudjet tuzilmasining yaxlitligi va bir butunligi qonun tomonidan mustahkamlab qo'yilgan, unda quyi byudjetlarning biri yuqori bo'g'inga kirishi ko'zda tutilgan.

Mahalliy resurslarni samarali boshqarish, munisipal iqtisodiyot subyektlarining o'zaro aloqalarni muvofiq ravishda tashkil etish ishbilarmonlik faolligini oshirish, hamda munisipal xizmatlar ko'rsatish uchun moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish imkonini beradi.

Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida har bir sohada iqtisodiy islohatlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, byudjet sohasida olib borilayotgan islohotlarni alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Har bir davlatning iqtisodiy qudrati shu davlatning mukammal byudjetga ega ekanligi bilan ham ifodalanadi. Mustaqillikka erishgandan so'ng, o'tgan davr ichida chuqur iqtisodiy islohat negizida barqaror moliyaviy tizimni, uning asosini tashkil etuvchi mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro qilish sohasida muayyan ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahon iqtisodi integratsiyalashuvi jarayoni davlatimizning hamdavlat moliyasini boshqarishni doimiy tarzda takomillashtirish zarurligini yuzaga keltirmoqda. Shunga ko'ra, mamlakatimiz davlat byudjetining ijrosini rivojlanayotgan mamlakatlarda joriy etilgan va qisqa muddat mobaynida o'zining ijobiy natijasini ko'rsatayotgan g'aznachilik tizimi faoliyatini joriy qilish arafasida turibdi.

Hozirgi kunda davlat byudjeti samarali ijrosini ta'minlashning davlat tadbirlari ichida mahalliy byudjetlarni boshqarishda g'aznachilik xizmatidan keng foydalanish va byudjet amaliyotida shu asosida tub o'zgarishlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mahalliy byudjetga gazzachilikni joriy etish uchun zarur huquqiy, dasturiy va uslubiy bazani shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan amalga oshiriladigan va oshirilayotgan chora-tadbirlar aniq belgilab olindi. "Gazzachilik organlarining maqsadi-byudjet sohasini uzliksiz moliyalashtirib borish, byudjetdan mablag' oluvchilar tomonidan ajratilgan resurslarni byudjet tizimi to'g'risidagi qonun

talablaridan kelib chiqib, byudjet tashkilotlariga yetkazish va ularning topshirig'iga asosan kassa operatsiyalarini yurgizishdan iborat."

Bozor iqtisodiyoti sharoiti byudjet siyosatining ahamiyati, byudjet jarayonlarida mahalliy byudjetlarning roli, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati moliya va byudjet siyosati masalalari hududiy iqtisodiyot taraqqiyoti va mahalliy byudjetlar muammolarini hal etishning dolzarb masalalaridir.

O'zbekiston Respublikasi byudjeti tizimini isloh qilish mahalliy byudjetlarni samarali boshqarishning hozirgi kundagi amaliyoti va nazariyasi oldiga uning qator yangi muammolariga yechim topishni ko'ndalang qo'ymoqda.

Mahalliy byudjetlar davlat byudjetining asosini tashkil etganligi uchun mahalliy byudjetlar daromadlarni oshirish davlatimiz iqtisodiyotining rivojlanishiga katta ta'sir qo'shishi bilan birga xalqimiz farovonligining oshishiga hamda mamlakatimizning rivojlangan davlatlar qatoriga tezroq kirib borishiga yordamlashadi.

O'zbekiston bozor iqtisodiyotiga o'tish yuzasidan amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mahalliy hokimyatlar vakolatini kengaytirishning eng asosiy yo'nalishlaridan biri – byudjet jarayonidagi vakolatlarni oshirish bilan bevosita bog'liq, chunki mahalliy byudjetlar hokimyatlar faoliyatida ularga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun iqtisodiy negiz hisoblanadi.

Darhaqiqat, O'zbekiston Respublikasi byudjeti tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit byudjet va ijtimoiy siyosatning manfaatlari mushtarakligini ta'minlash asosidagi o'ta ma'suliyatli vazifalarni samarali boshqarishni talab etmoqdaki, ushbu vazifaning 2 jihatini ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatning joylardagi ijobiy ijrosi yuki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olishdir, 2-dan, mahalliy byudjetlar huquq va majburiyatlarning kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligidir. Ushbu har 2 jihatning o'zaro bog'liq tarzda birgalikda olib borishni mamlakat ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o'ta muhim muammosini ijobiy hal qilishga imkon beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ta'kidlaganidek, "joylarda ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyot muammolarini muvaffaqiyatli va moliyaviy inqirozlarsiz hal etish mahalliy byudjetlar daromad bazasining barqarorligini, ulardagi investitsion, soliq, valyuta imkoniyatlarining bir tekis taqsimotini talab etadi va hududlarning iqtisodiy faolligini rag'batlantirish lozim".

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirish va mahalliy byudjetlar imkoniyatlarini hamda iqtisodiy erkinlashtirish shart-sharoitida mahalliy byudjetlarni shakllanishi va ijrosini ta'minlashda mahalliy hokimyat organlarining moliyaviy va huquqiy rolini oshirish hozirda dolzarbdir.

Fikrimizcha, byudjetga "bu-turli darajadagi markazlashtirilgan pul mablag'lari fondini vujudga keltirish, taqsimlash va foydalanishga oid asosiy moliyaviy reja bo'lib, u tegishli davlat yoki mahalliy idora tomonidan ishlab chiqiladigan va tasdiqlanadigan yuridik hujjatdan iborat" deb tariflashda aynan mahalliy byudjetlarning o'ziga xos xususiyatlari namoyon bo'ladi.

Byudjet asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'la qamrab oladi.

Mahalliy byudjetlar mahalliy hokimyatning faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi, davlatning ijtimoiy siyosatni joylarda amalga oshirishda rol o'ynaydi.

O'zbekiston mustaqillikka erishuvi va ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutishi sharoitida mahalliy byudjetlarning Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi roli yanada oshadi.

1.2. Jahon moliyaviy inqirozi sharoitida mahalliy byudjet daromadlari va ularni shakllantirish choralari

Respublika hukumati va mahalliy hokimyat organlari tomonidan ko'riladigan chora-tadbirlar natijasida keyingi yillarda mahalliy byudjetlarning daromad qismlarini shakllantirish masalalarida ijobiy siljish kuzatildi.

Mahalliy byudjet daromadlari:

- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga yo'naltiriladigan yig'imlar, bojlari va boshqa majburiy to'lovlar.
- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq mahalliy byudjetlarga o'tkaziladigan umumdavlat soliqlari va boshqa majburiy to'lovlar.
- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq davlat mulki obyektlarini joylashtirish-u foydalanishga berishdan olinadigan daromadlar
- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq meros olish, hadya etish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan pul mablag'lari.

Yuqori byudjetlardan olinadigan byudjet dotatsiyalari, subvensiyalari va subsidiyalari.

- Yuridik va jismoniy shaxslardan hamda chet el davlatlaridan kelgan qaytarilmaydigan pul tushumlari.
- Qonun hujjatlarida belgilangan normativlarga muvofiq boshqa daromadlar hisobiga shakllantiriladi.

O'zbekistonning yagona soliq tizimi yaratilib, unga umumdavlat, mahalliy soliqlari va yig'imlar kiritiladi. O'zbekiston Respublikasining Soliq Kodeksining 5-8 moddalariga binoan soliq tizimi quyidagi tarkibga ega: umumdavlat soliqlari yuridik va jismoniy shaxslarning daromad solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, suv resurslardan foydalanish solig'i, bojxona solig'i, qimmatli qog'ozlarni ro'yhatdan o'tkazish solig'i va boshqalar;

Mahalliy soliqlar va yig'imlar mol-mulk, yer, kichik biznes uchun yagona, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, savdo solig'i uchun yig'imi, jumladan, alohida tovarlar turlarini sotish uchun letsinziya yig'imi, tadbirkorlik bilan shu'g'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarni ro'yhatdan o'tkazish yig'imi, avtotransportning vaqtinchalik turar-joy yig'imi va solig'i.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy hukumat va boshqaruv organlarini javobgarligi bilan birga, ularning manfaatdorligini oshirish maqsadida mahalliy byudjetlar ixtiyoriga quyidagi umumdavlat soliqlari va yig'imlarini to'laligicha qoldirish ko'zda tutilgan:

- Suv resurslaridan foydalanish
- Ekologiya solig'i va atrof-muhitini to'lov
- Yagona soliq.

Tadbirkor jismoniy shaxslardan olinadigan soliq- fiskal soliq. Pivo, o'simlik yog'i, xo'jalik sovunidan olinadigan aksizlar 2002-yilda asosan ishlash va ishlash mahsulotlari, xrustal buyumlar, xrustaldan yasalgan qandillar, mebel, video-audi

apparaturasi va kumushdan qilingan oshxona anjomlaridan olinadigan aksizlar ham mahalliy byudjetga kiritildi.

Barcha mahalliy byudjetlar mustaqilligidan kelib chiqib, ularni davlat qo'llab – quvvatlashi, hududiy daromadlar manbalarini, mahalliy byudjetlar daromadlarni o'z daromadlari yoki birlashtirilgan soliqlar hisobiga shakllantiriladi. Mahalliy byudjet daromadlari 2 ga bo'linadi:

- Bevosita tushuvchi daromadlar
- Yuqori tashkilotdan ajratma sifatida keladigan daromadlar;

Mahalliy byudjetlarning daromadlari shaharlarda 30-40%ni, qishloqlarda 10-20%ni, qolgan qismini ajratma daromadlar tashkil etadi. Mahalliy byudjet qanchalik rivojlansa, daromadlari ko'payadi, imkoniyati shuncha barqaror bo'ladi. Tartibga solinuvchi daromadlar pul mablag'larining yig'indisi yuqori byudjetlardan quyi byudjetga beriladigan barcha moliyaviy resurs.

Qoraqalpogiston Respublikasi va mahalliy byudjetga byudjet ssudasi shaklida ham moliyaviy mablag'lar kelib tushadi. U yuqori byudjetdan quyi byudjetga yoki Respublika byudjetiga prezident- yuridik shaxs yoki chet el davlatga qaytarish sharti bilan ajratilgan mablag'.

Byudjet subvensiyasi – qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda muayyan maqsadlarda sarflash sharti bilan yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet dotatsiyasi- o'z daromadlari va byudjetni tartibga soluvchi boshqa mablag'lar yetishmagan taqdirda quyi byudjetning xarajatlari bilan daromadlari o'rtasidagi farqni qoplash yuqori byudjetdan quyi byudjetga qaytarmaslik sharti bilan ajratiladigan pul mablag'lari.

Byudjet subsidiyasi- boshqa daromaddagi byudjetdan ajratiladigan pul mablag'I bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslarga maqsadli xarajatlarni bir qismini moliyalashtirish uchun beriladi. Byudjet subvensiyasi va dotatsiyasi Qoraqalpogiston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetga davlat byudjetining tasdiqlangan chegara doirasida beriladi. Bunda quyidagi ko'rsatkichlar hisobga olinadi:

- O'zining daromad bazasini hisobga olgan holda teritoriyaning moliyaviy ahvoli;
- Iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik, demografik va boshqa umumdavlat vazifalar va dasturlar;
- Mintaqalar bo'yicha Tovar va xizmatlarning bahosidagi farq;
- Har bir mintaqada yashovchi aholi soni;
- Mintaqada joylashgan korxona, tashkilot, muassasalarning byudjet mablag'lariga ehtiyoji;
- Mintaqalararo moliyaviy balanslashtirishda e'tiborga olinadigan boshqa omillar.

Qoraqalpogiston Respublikasi va mahalliy byudjetga xarajatlar va daromadlar o'rtasidagi vaqtinchalik kassalik farq aylanma kassa mablag'i, byudjet ssudasi bilan, o'tgan davrda ishlatilmay qolgan byudjet mablag'lari hisobiga qoplanadi.

Aylanma kassa mablag'i me'yoriy moliya yiliga Qoraqalpogiston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetga hisob varaqalarida tushishi mumkin bo'lgan mablag'larining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan eng kam miqdori.

Aylanma kassa mablag'i me'yoriy qonun hujjatlariga muvofiq moliya yili boshiga Qoraqalpogiston Respublikasi byudjetiga va mahalliy byudjetga hisob varaqalarida belgilangan yillik byudjet doirasida xarajatlarni ish haqi va unga hisoblanadigan ajratmalarning 12 dan 1qismini tashkil qiladigan pul mablag'larining minimal miqdori. Aylanma kassa mablag'i me'yorining hajmi davlat byudjeti to'g'risidagi qonunda belgilanadi. Shuningdek markazlashmagan tadbirlarni moliyalah maqsadida quyi byudjetlar daromadlarini markazlashtirishi mumkin. Ajratmalar davlat byudjeti to'g'risidagi qonunda belgilanadi. Fikrimizcha, respublika va mahalliy byudjetlarning QQS, korxonalar foydasidan olinadigan soliq, aksiz solig'i kabi asosiy soliqlar tusumidagi ulushni qonuniy belgilash lozim.

Mahalliy hokimyat va boshqaruv organlarining barcha daromadlaridagi mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, musttaqilligi va ma'suliyatini oshirish, mahalliy byudjetlarning davlat byudjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida quyidagilar mahalliy byudjetlar daromadlariga o'tkaziladi:

- Suv rerurslaridan foydalanish
- Ekologiya solig'i va atrof-muhitini to'lov
- Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishdagi daromaddan olinadigan soliq
- Respublikada ishlab chiqariladigan alkohol mahsulotlar, spirt, pivo, o'simlik yog'i, kir sovuniga aksiz soligi bo'yicha tushumlar.

O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining yaratilishida boshqa xo'jalik tadbirlari bilan moliya-soliq tizimida tub o'zgarishlar ro'y berishini ko'zda tutadi. Mahalliy byudjetlar daromadini oshirishni ichki zararlarni, hududlarni ishlab chiqarishini rivojlanishi, joylarda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan chambarchas bog'liq.

Byudjet tushumini ushbu tartibda takomillashtirish hisobiga mahalliy hokimyat organlari o'z hududlarida joylashgan korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirishdan manfaatdor bo'ladi. Soliqning to'la va o'z vaqtida to'lanishi ustidan ham nazorat qilishga qiziqish paydo bo'ladi. Chunki Respublika byudjetiga ushbu soliqlardan tushgan umumiy tushumdan belgilangan me'yorlar asosida ajratma qilishdan ko'ra, mazkur hududda ushbu soliqlar tushumida o'z ulushini qonuniy tartibda kafolatlab qo'yilishi bizning fikrimizcha afzalroq.

Mahalliy byudjetlar tizimi mahalliy ehtiyojlarni to'laroq hisobga olish va davlatning markazlashgan tartibda bajaradigan tadbirlarni to'g'ri qilish imkonini beradi. Byudjetlararo munosabatlarning muhim sharti turli daromaddagi byudjetlarning moliyaviy bazasini shakllanishining o'zaro bog'liqligini ta'minlash. Bu baza har bir byudjetning o'z daromadidan, birlashtirilgan va tartibga soluvchi soliq tushumlari, yuqori byudjetdan ajratiladigan turli shakldagi moliyaviy yordamlardan iborat.

Mahalliy byudjetlarning eng 1-daromad manbai mahalliy soliq va yig'implar. Ular hozirgacha davlatchilik munosabatlarini rivojlanishiga munosib shakllanmoqda. Agar Respublikamizning bozor munosabatlariga o'tishi bilan turli sohalarida bajariladigan va davom etayotgan islohotlarga qarasak, mahalliy byudjetlar mavqeini oshirish- uning daromad manbaini mustahkamlashga qaratilgan.

Mahalliy soliq va yig'implar hozirgacha tarkibida son va mohiyat jihatidan o'zgarishlar bo'lnmoqda. Hozir ularning yangi turlari joriy etildi va amaliyotda samarali qo'llanmoqda.

Mahalliy soliqning asosiy qismi mahalliy byudjetning o'zi talab etadi. Mahalliy soliq va yig'implarni huquqiy tartibga solishda mahalliy byudjetlar vakolati bo'lsada, Respublika qonunchiligi bilan hisoblashiladi.

Mahalliy soliq va yig'implar huquqiy jihatining muhim biri, ular belgilash usuliga ko'ra, 2ga : respublika va mahalliy qonunchilik bilan joriy etiladigan mahalliy soliq va yig'implarga bo'linadi.

Inson taraqqiyotining globallashuv sharoitlari jadal rivojlanmoqda. U iqtisodiy jihatdan jahon xo'jaligining butun bo'lishi na rivojlanishidir. Jumladan transmilliy korporatsiyalar, ularning turli xalqaro birlashmalari tarkib topishi va xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqorilashi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyati kuchayishidir. Umumman, yaxlit iqtisodiy tizimning rivojlanishida sifat bosqichi bo'lib, yangi imkoniyatlardir.

Lekin, buni mutloqlashtirish va bir tomonlama qarash to'g'ri emas. Chunki bu jarayonning salbiy tomonlari ham bor. Jahonning bir davlatidagi iqtisodiy inqiroz boshqa davlatga ham ta'sirini o'tkashi shulardan biri bo'lib, moliyaviy inqiroz ham.

Shunga ko'ra, Prizedentimiz o'z asarlarida hozirgi eng dolzarb muammo – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, ta'sir va oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat bo'lib, uning sabablariga to'xtab o'tdilar.

”Bu inqiroz AQSHda ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ng bu jarayoning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tizulmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi. Bularning barchasi o'z navbatida ko'p mamlakatlarda ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish suratlarining keskin pasayib ketishi bilan bog'liq ishsizlik va boshqa oqibatlarni kengaytirdi” -I.Karimov ”Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari”.

Bundan, dastlab AQSH ipoteka bozorlarida paydo bo'lgan bu inqiroz yetarli to'lov layoqatiga ega emasligi, qarzlarni qaytarish qobiliyati shubhali bo'lgan qarzdorlarga ipoteka kreditlari berish amaliyotining jadallashuvi ro'y berganidir.

Aksar moliyachi-iqtisodchilar vujudga kelgan inqirozning haqiqiy sabablaridan biri rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiyotning haddan tashqari erkinlashtirilgani siyosatining ”mevasi” ekani, ya'ni ”o'z-o'zini boshqaruvchi

bozor” g’oyasini ilgari surish orqali davlatning milliy iqtisodiyotiga va moliya bozorlarga aralashuvini cheklanganligi bilan izohlashdi.

Yana, asosan yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishining asosiy sabablaridan hisoblanadi:

- Noratsional pul-kredit siyosatini, qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;
- Moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag’lari o’rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;
- Qimmatli qog’ozlar bo’yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;
- Moliyaviy audit va professional etika tamoyillarini buzilishi va soxta audit xulosalari;
- Moliyaviy rag’batlantirish uslubi sifat ko’rsatkichlariga emas, miqdoriy ko’rsatkichlarga asoslanganligi;
- Yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatli qog’ozlarni vujudga kelishi vhz.

Prizentimiz asarlarida hozirda dunyoning yetakchi taxlil va ekspertiza markazlari global moliyaviy inqiroz holatini va uning bo’lishi mumkin bo’lgan oqibatlariga doir materiallarini o’rganish va umumlashtirish natijasida quyidagi xulosalarga keldi: ”1-dan, moliya bank tizimidagi inqiroz jarayoni deyarli butun dunyoni qamrab olayotgani, ressessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarlighi, investetsion faoliyatning cheklanganligi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, ko’p davlatlarga ta’sir ko’rsatayotgan ijtimoiy talofatlar sodir bo’lishi o’z tasdig’ini topmoqda”.

Jahonda tashqi savdo aylanmasidagi o’zgarishlar(mlrd.AQSH dollari)

Mamlakatlar	1996-yil	2007-yil
Riv.mamlatlar	46.2	-798.8
AQSH	-120.2	-854.7
Yaponiya	65.4	81
Yevropa Ittifoqi	88.5	-228
Boshqalar	12.5	202.2
Rivojlanayotgan mam.	-87.5	509.7
Xitoy	7.2	562
Afrika	5.9	311
Boshqalar	-100.6	-363.3

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, dollar hajmidagi sanbiy saldoni tashkil qilgan.

Rivojlangan davlatlar, ayniqsa AQSH tashqi qarzi miqdorining o’sib borganligi va YAIMdagi salmog’i o’sganligi inqirozni kuchayishining asosiy omillaridan.

O'zbekistonda amalga oshirilgan oqilona iqtisodiy siyosat natijasida tashqi qarzni YAIM dagi ulushi 2005-yildagi 29%dan 2008-yilda 13.3%ga qadar qisqargan.

Hozir ko'p mutaxassis va ekspertlar jahon moliyaviy inqirozining global tus olishi va iqtisodiy inqiroz jarayonining kuchayganligini, ressessiya va iqtisodiy pasayishning muqarrarlighi, investetsion faoliyatning cheklanganligi, talab va xalqaro savdo hajmining kamayishi, ko'p davlatlarga ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy talofatlar sodir bo'lishini e'tirof etishmoqda.

Prezidentimiz o'z asarlarida global moliyaviy inqirozini va uning yuz berishi mumkin bo'lgan oqibatlariga doir materiallarini o'rganish va umumiy lashtirish natijasida kelib chiqadigan quyidagi uchunchi xulosani ta'kidlab o'tdilar. "Uchinchidan, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning har qaysi davlatdagi miqyosi va oqibati qanday bo'lishi bir qancha omillardandir. Bu avvalo shu davlatning moliya-valyuta tizimi mustahkam ekaniga, milliy kredit institutlarining qay darajada kapitallashuvi va likvidligi ularning chet el va korporativ bank tizimlariga qaramligi, yana, oltin-valyuta zahirasi ning hajmi, xorijiy kreditlarni qaytarish qobiliyati va pirovard natijada davlat iqtisodiyoning barqarorlik, devirsifikatsiya va raqobatga bardoshlik darajasiga bog'liq"² deb yozadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri davlat organlari joriy etilgan mahalliy soliqlar va yig'imlar

Soliq turi	Eng yuqori stavkasi
Obodon. Va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	Korxona sof foydasining 8%
Iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq	-
Transport uchun benzin, dezil, yoqilg'i	1litr- 50 sum
Transport vositalari uchun gaz	1litr- 50 sum
Savdo qilish huquqi uchun letsinziya	1 oylik – eng kam ish haqining 5 barobari

² I.A.Karimov Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi. O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: "O'zbekiston" 2009 y. 5 bet.

Mahalliy soliqlar va yig'imglar fiskal nuqtai nazardan yetarli darajada samarali bo'lmagan va 2darajali ahamiyatga ega bo'lgan soliqlar va yig'imglar.

Mamlakatning soliq qonunchiligiga, davlat hokimiyati organlarining qarorlariga va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining me'yoriy-huquqiy aktlariga muvofiq o'rnatiladigan hamda tegishli mahalliy hududda to'lanishi shart bo'lgan soliq va yig'imglarga mahalliy soliq va yig'imglar deyiladi.

Davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari vakolatiga, o'zlarining fiskal ahamiyatiga va amal qilish davriga qarab, mahalliy soliq va yig'imglar ikkiga bo'linadi

